

## G'ARB TA'LIMOTIDA AVLODLARARO MUNOSABATLAR VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamarayemova Guljahon Farhodovna,  
“Oila va gender” ilmiy – tadqiqot instituti doktoranti

## INTERGENERATIONAL RELATIONS AND CHARACTERISTICS IN WESTERN EDUCATION

Mamarayemova Guljahon Farhodovna,  
Doctoral student of “Family and Gender” Scientific  
Research Institute

## МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ И ХАРАКТЕРИСТИКИ

## В ЗАПАДНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Мамаерамова Гулжахон Фарходовна,  
Докторант НИИ “Семья и гендер”



(+998911333199),

[gmarayeva1222@gmail.com](mailto:gmarayeva1222@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0001-4784-4804>

**Annotatsiya:** Maqola oila ijtimoiy institut sifatida qarashlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, g'arb namoyondalarining oiladagi avlodlararo munosabatlarga oid nazariyalari keltirilgan. Maqolaning maqsadi oila to'g'risidagi nazariyalarni to'plash, umumlashtirishga asoslangan. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila insoniyat jamiyati taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, o'zgaradi, uning asosiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Oila jamiyatning bir bo'lagi bo'lib, unda jamiyat boshdan kechirgan barcha o'zgarishlar aks etadi, ibtidoiy oila guruhlaridan tortib, zamonaviy oilagacha barcha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. Bunday o'zgarishlar faylasuflarda katta qiziqish uyg'otgan va ularning oila haqidagi nazariyalari kelib chiqishiga asos bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** oila, ijtimoiy institut, ijtimoiy guruh, oila falsafasi, avlod, avlodlararo munosabatlar, nikoh, tarbiya.

**Abstract:** The article is devoted to the study of the views of the family as a social institution, and the theories of the Western representatives on intergenerational relations in the family are presented. The purpose of the article is based on the collection and generalization of theories about the family. The conducted studies show that the family develops and changes along with the development of human society, it is its main component. The family is a part of society, which reflects all the changes that society has experienced, from the primitive family groups to the modern family. Such changes were of great interest to philosophers and became the basis for the origin of their theories about the family.

**Keywords:** family, social institution, social group, family philosophy, generation, intergenerational relations, marriage, upbringing.

**Аннотация:** Статья посвящена изучению взглядов на семью как социальный институт, а также представлены теории западных представителей о межпоколенческих отношениях в семье. Цель статьи основана на сборе и обобщении теорий о семье. Проведенные исследования показывают, что семья развивается и изменяется вместе с развитием человеческого общества, она является его основной составляющей. Семья – это часть общества, в которой отражены все изменения, которые пережило общество, от первобытных семейных групп до современной семьи. Подобные изменения вызвали большой интерес у философов и стали основой зарождения их теорий о семье.

**Ключевые слова:** семья, социальный институт, социальная группа, философия семьи, поколение, межпоколенческие отношения, брак, воспитание.

**Kirish.** Inson paydo bo'lganidan boshlab turli taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi, bular ibtidoiy to'ldan oilagacha, qullik tizimidan demokratiyagacha va boshqa davrlarni o'z ichiga oladi. Faylasuflarning diqqat markazida inson va jamiyat turar ekan, ularni bog'lab turuvchi oila va oilaviy munosabatlarga bo'lgan qiziqish e'tiboridan chetda qolmaydi. Oilaviy munosabatlar tarkibiy qismi hisoblangan avlodlararo munosabatlar XX asr oxirida kirib kelgan atama hisoblansa-da, inson va oilalar paydo bo'lgan davrga borib taqaladi. Bugungi kunda oila tinchligi va jamiyat barqarorligini ta'minlashda avlodlararo munosabatlar o'z ta'sir kuchiga ega va bu mavzuning qanchalar dolzarb va ahamiyatli ekanligini isbotlaydi. Shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, avlodlararo munosabatlar barcha oila a'zolariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, hissiy salomatliklarini mustahkamlaydi. Avlodlararo munosabatlar deganda, bobo-buvi, ota-onalar, farzandlar va nabiralar hatto chevaralar o'rtasidagi munosabatlar zanjiri tushuniladi. "Zamonaviy jamiyatning evolyutsiyasi, ayniqsa mahalliy va ijtimoiy harakatchanlikning kuchayishi, individuallashuvi va ayollarning mehnatga integratsiyalashuvi bilan keng va ko'p avlodli oila, burjuaziya davridan boshlab yadro oilasiga qisqardi"[1]. Oilani nazariy tushunishga birinchi urinishlar Qadimgi Yunoniston davrida boshlangan va aynan shu davr nazariyalaridan avlodlararo munosabatlar shakllarini uchratishimiz mumkin. Shu davrdan boshlab oila mustaqil ijtimoiy tuzilma sifatida shakllana boshlagan, institutsionalizatsiya jarayoni sodir bo'lgan. Antik davrda oilaning vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari o'zgacha ahamiyat kasb etgan bo'lib, bular; davlat o'rnatgan qoidalar va an'analarga qat'iy rioya qilish va so'zsiz davlatga itoat etish edi. Oilani tushunishda o'sha davrning Sokrat, Platon va Aristotel va shu kabi yetuk mutafakkirlarning nazariyalari beqiyos o'ringa egadir.

**Adabiyotlar tahlili va metod.** Oila va oila a'zolari o'rtasidagi avlodlararo munosabatlar hozirgi kunga kelib o'z ahamiyatiga ega mavzuga aylandi. Bunga sabab XX asrga kelib, kuchli demografik o'zgarishlar, o'rtacha umr ko'rish va tug'ilishning qisqarishi hamda ijtimoiy ta'minot bo'ldi. Uning asoslari qadimgi davrlardagi sharq va g'arb faylasuflari qarashlariga taqaladi. G'arbnig buyuk namoyondalari o'z falsafiy qarashlari yoritilgan asarlarida oila va oilaviy munosabatlarga alohida

to'xtalib o'tib, ushbu asarlarda oilaning ijtimoiy xususiyatlari, axloqiy va jamiyat bilan bog'liq jihatlarini tahlil etadi. Avlodlararo munosabatlar muammosi turli shakl va xususiyatlarga ega bo'lib, ushbu munosabatlar ziddiyat va yaqinlik, qo'llab – quvvatlash va begonalshuv kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu munosabatlar turli fan doirasida turlicha yoritilib, ijtimoiy falsafa fani doirasida qisman tor o'rganilgan.

Ilmiy maqola tayyorlash jarayonida analiz, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik va mantiqiylik kabi usullardan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** Oila inson hayotining hissiy va shaxsiy tomonlari, davlat esa jamoatchilik tomonidan qabul qilinadi. Shu bilan birga, oilalar jamiyatga foyda keltiradigan va uni birdamlikda saqlashi mumkin bo'lgan ko'plab qimmatli shaxsiy xususiyatlarni o'rgatadi. Sokrat oila mustahkamligini ta'minlaydigan muhim xususiyatlar sadoqat va mas'uliyatdir, deydi. Oilani bekor qilish g'oyasi, oiladan ko'ra ko'proq muammolarni keltirib chiqaradi. Sokrat tassavuridagi utopik jamiyatda inson hayoti butunlay davlat va jamiyat atrofida markazlashtiradi, boshqariladi, fikrlar haqiqatan ham noxolis bo'lishiga olib keladi. Individualizm va shaxsiy rivojlanish uchun esa o'rin yo'q. "Sokrat ta'limning teng va imkoniyatlari kengligidan foydalanib, faylasuflar har qanday farazni uyalmasdan ayta olishlari kerak degan fikrni ta'kidlaydi; Bu ayollarning barchasi umumiy erkaklarga tegishli bo'lishi kerak va hech qanday ayol hech qanday erkak bilan yolg'iz yashamasligi kerak. Bolalar esa, o'z navbatida, umumiy bo'ladi va na ota-ona o'z avlodini, na bola ota-onasini bilmaydi" [2]. Sokrat qarashlariga ko'ra, oila va avlodlararo munosabatlarni bo'lmasligi va butun insoniyat faqat jamiyat farovonligiga xizmat qilishi lozim. Bunday utopik nazariya hech qachon o'zini oqlamasligini vaqt isbotladi, aksincha oila hamda undagi avlodlararo ijobiy munosabatlar jamiyat gullab-yashnashiga asos bo'ladi.

Sokratning shogirdi Platon "patriarxal" deb nomlangan oila haqidagi birinchi nazariyani shakllantiradi. Berilgan nazariyaga ko'ra, oila davlat tomonidan muayyan tizimga solinishi va so'zsiz davlatga itoat etishi uning barqaror rivojlanishini va mustahkam o'rnini kafolatlaydi. Platonning fikricha, har bir nikoh, birinchi navbatda, yuqori tartibni tashkil etish sifatida davlatga foyda keltirishi kerak.

Platon nikohni asosiy tushunchadan biroz farq qiladigan noan'anaviy tarzda ko'rib chiqdi. Uning ideal davlatining tasvirlariga ko'ra, davlat insonning ko'payishini kuzatishi va nazorat qilishi kerak. Yevgenika falsafasiga ko'ra, vaqtinchalik nikohlar tan olingan Hukmdorlar tomonidan tanlanadigan festivallarda tartibga solinadi. Platon buni oddiy odamlar qabul qilinmasligini tushungan, shuning uchun u sir saqlangan. Platon respublikasida turmush o'rtog'ini "nikoh raqami"ni tanlash orqali tanlanadigan raqam tizimi joriy etiladi. Bu konsepsiyaga ko'ra, o'xshash fazilatlarga ega bo'lgan odamlar avlod berishlari uchun bir-biriga mos keladi. Hamma ismlarni qur'adan tanladi va ular olgan turmush o'rtog'ini Xudoning o'zi tanlaydi va agar siz bo'sh joy qoldirsangiz, siz avlod qoldirish uchun noloyiq hisoblanasiz deb ishontiriladi [3]. Platon, shuningdek, farzandlarni biologik otanalardan tortib olishni xohladi va ularni umumiy bolalar bog'chalarida tarbiyalashni xohlaydi. Platonning nikohni qayta tizimga solish sababi xususiy oila tushunchasini bekor qilish va shaxsiy manfaatni susaytirish va umumiy manfaatni rag'batlantirish va davlatning kuchini oshirish edi. Bundan tashqari sabab, inson sharoitlarni yaxshilash edi, mantiqan olib qaraganda, agar yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan odamlar tarbiyalansa, natija ham shunga qarab yaxshi bo'lar edi.

Aristotelning oilaga munosabatini patriarxal deb ham aniqlash mumkin. Platonga o'xshab, Aristotel oilani davlatning asosiy elementi deb hisoblagan, ammo Platondan farqli o'laroq, u davlat, oila va jamiyat o'rtasidagi aloqalarning asosiy xususiyatini ta'riflagan. Aristotelning fikricha, oilani yaratish insonning tabiiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishdan boshqa narsa emas. U oilaning nafaqat davlat uchun, balki avlodlararo munosabatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini ham belgilab berdi. Aristotel oilani "jamiyatning birlamchi bo'g'ini sifatidagi g'oyalarni rivojlantiradi va birinchi marta oilani mustaqil ijtimoiy, iqtisodiy kategoriya deb hisoblaydi" [4]. Shunday qilib, qadim zamonlardayoq oilaga nisbatan turli, ko'pincha qarama-qarshi qarashlarning paydo bo'lishiga moyillik shakllangan.

Aristotel, o'zining "Siyosat" asarida Platonning oilaga qarshi nazariyalariga qat'iyan no-rozi bo'lgan. Aristotelning ta'kidlashicha, "oilalar jamiyatning asosiy ijtimoiy birligi, chunki ular

alohida shaxslarni va siyosatni o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Buning asosiy sababi, uning tushuntirishicha, oila mas'uliyatni - adolatli va yaxshi jamiyat uchun zarur bo'lgan fazilatni o'rgatadi va avloddan avlodga yetkazadi. Jinsiy sheriklar va bolalarni bo'lishish natijasida, har biriga kamroq e'tibor beriladi - bu umumiy narsalar fojiasi haqidagi zamonaviy konsepsiyaning timsolidir. Aristotel ta'kidlaganidek, ko'pchilik uchun umumiy bo'lgan narsaga eng kam g'amxo'rlik qilinadi" [5]. Har kim asosan o'zini o'ylaydi, umumiy manfaat haqida deyarli o'ylamaydi va faqat uning o'zi o'zini shaxs sifatida tashvishlantiradi. Shuningdek, har bir kishi vazifasini e'tiborsiz qoldirishga moyil va boshqa bajarishini kutadi. Aristotelning oila bo'yicha tadqiqoti avlodlarining yaxshi va axloqiy xulq-atvor g'oyalarini o'rganadi, ularni tadqiq qilishga intiladi.

Yuqorida muhokama qilingan oilani falsafiy tushunishga oid dastlabki ishlar o'rta asrlar va Uyg'onish davri faylasuflarining ko'pchiligining asarlariga asos solgan. Jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan oila hamisha jamiyatdagi o'zgarishlardan so'ng jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Shunday qilib, ingliz faylasufi Frensis Bekon oilaning tarbiyaviy funksiyasini o'rganib, oilaning butun jamiyat, ayniqsa, har bir shaxs hayotidagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan, umuman olganda, ularning tarbiyalanishi va rivojlanishi davrida oiladagi munosabatlar ezigulikka asoslangan bo'lishi shart. Yana bir ingliz faylasufi Devid Yum o'sha paytda mavjud bo'lgan nikoh shakllarini batafsil tadqiq qildi. Uning "Ko'pxotinlik va ajralish" haqidagi kitobi ilk o'rta asrlardagi turmush tarzi haqida bo'lib nikohni kuchli himoya qiladi. Uning dalillari bugungi kunda biz uchun katta ahamiyatga ega, chunki biz misli ko'ril-magan ajralishlar va turli xil nikohlar, ko'pxotinlik kabi holatlarga ko'p uchramiz. Yum o'z kitobida ko'pxotinlikka ruxsat bergan urf-odatlar va qonunlar haqida tavsiflab o'tadi va buni tanqid qiladi. Yum aytadi: "Ko'pxotinlik erkaklar tomonidan qilingan tenglik emas, zo'ravonlikdir, biz tabiatan ayollarning sevgani, do'sti va suyanchig'imiz, biz ixtiyoriy ravishda o'z unvonimizni zolimlikka almashtirib qo'yamaymizmi?" [6]. Yumning so'zlariga ko'ra, ko'pxotinli nikohlar baxtsizliklar keltirib chiqaradi. Bunday nikoh ostida tug'ilgan va tarbiyalangan bolalar faqat xo'jayin va qullarning turmush tarziga moslashadilar va hech qachon inson tengligining ahamiyatini tushunmaydilar. Bunday tartib bilan

tugʻilgan juda koʻp avlod ham har bir bolani otalik vazifalaridan mahrum qiladi, chunki koʻpxotinli ota oʻzining koʻp sonli avlodi bilan oʻtkazish uchun kam vaqtga ega boʻladi. Bundan tashqari bu mehr-oqibatning yetishmasligi, tarbiyaning buzilishi, oʻgay ota yoki oʻgay ona munosabatining aralashuvi, shuningdek, nosogʻlom muhitning yaratadi, bu esa oʻz navbatida, avlodlararo munosabatlarning buzilishi va salbiy oqibatlarga olib keladi.

Mashhur nemis idealist faylasufi Immanuel Kant oilani inson oʻzining “tabiiy ustunligi” tufayli yetakchi rol oʻynaydigan axloqiy-huquqiy institut deb taʼriflagan. Immanuel Kant ushbu masalani oʻrganish jarayonida har bir oilaning asosiy roli yangi odamlarni tarbiyalashdan iborat degan xulosaga keldi. Tarbiya, I.Kantning fikricha, bu har bir ota-onaning axloqiy burchidir. Nikoh, oʻz navbatida, turmush oʻrtoqlar oʻrtasidagi qonuniy ravishda rasmiylashtirilgan jinsiy aloqa. Nemis idealizmining yana bir vakili Iogan Fixte ham oʻsha davrga xos boʻlgan oilani oʻrganishda insonparvarlik yoʻnali-shini kuzatgan. I.Kant singari u ham oilada erlarning yetakchi rolini qayd etadi, shu bilan birga u umuman jamiyatda, xususan, oilada erkak va ayol tengligi tarafdori edi” [7].

Yana bir nemis idealisti Georg Vilgelm Fridrix Gegel Kant va Fixte tomonidan shakllantirilgan gʻoyalarni tanqid qildi. Uning fikricha, oila “tabiiy axloqiy jamoa”dir. G. V.F. Gegelning oila haqidagi asosiy gʻoyalari uning “Huquq falsafasi” fundamental asarida bayon etilgan. G. V. F. Gegel “oilaning “jamiyat birligi” sifatidagi asosiy rolini eʼtirof etadi, chunki odamlar oʻrtasidagi muhabbat bilan toʻplanagan oiladir, davlatda esa sevgi yoʻq” [8]. G.V.F.Gegelning fikricha, oila axloqiy ruhning timsoli boʻlib, oila farovonligi davlat uchun asosiy ustuvor vazifa boʻlishi kerak. Bundan tashqari, G. V. F. Gegel oilaning koʻp qirrali xususiyatini ochib berdi, unda oila ijtimoiy institut sifatida jamiyatning boshqa sohalari bilan doimiy aloqada boʻlib, oila institutiga doimiy taʼsir koʻrsatadi va shu bilan uni oʻzgartiradi. Gegel oilaning axloqiy asoslarining ahamiyatini ham koʻrsatdi. Oila, Gegel nuqtai nazaridan - axloqiy substansiya, ruhning bevosita mohiyati boʻlib, axloqning birinchi bosqichi sifatida uning toʻgʻridan-toʻgʻri, tabiiy, rivojlanmagan koʻrinishida namoyon boʻladi.

**Xulosa.** Oila jamiyatning barcha tarixiy taraqqiyot bosqichlarida olimlar va faylasuflar tomoni-

dan katta qiziqish bilan eʼtiborini tortib kelgan. Gʻarb taʼlimotida oila va avlodlararo munosabatlarga boʻlgan oʻzgacha yondashuv, umumiy va oʻziga xos jihatlari yoritildi. Gʻarb mutafakkirlarining oila va avlodlararo munosabatlarda keltirgan nazariyalarining oʻziga xos jihatlari tenglik va erkinlikni ulugʻlashlarida, ayniqsa, ayollar va erkaklarning teng huquqli ekanligi haqidagi qarashlari bugungi kunda “gender tengligi” atamasining paydo boʻlishi va rivojlanishiga asos boʻlgan. shuningdek, barcha qarashlari jamiyat tarkibiy qismi va tuzilmasiga bogʻliq. Avlodlararo munosabatlarda oiladagi maʼnaviy-axloqiy jihatlari, tarbiya, burch va masʼuliyat, hamda ota-onalar munosabati (ajrashish, koʻpxotinlilik va boshqa) taʼsiri chuqurroq yoritib oʻtilgan. Oila jamiyatning ijtimoiy institut, hamda ijtimoiy guruh sifatida jamiyatning birligi va ajralmas boʻlagi deya tavsiflangan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Abolishing The Family In Socrates The Republic. <https://www.majortests.com/essay/>
2. Николаева Л.С., Устинова Т.Е., Иацкаиа Е.Н. Семья как объект исследования в философии Сократа и Платона [The family as an object of research in the philosophy of Socrates and Plato]. Актуальные проблемы социальной истории, философии и социальной работы. - Новочеркасск: ООО Лик, 2018, с. 158.
3. Views of Plato on Marriage. <https://edubridie.com>.
4. Aristotle. Politics. В. (Jowett, Trans.). In R. McKeon (Ed.), The basic works of Aristotle. New York, NY: Modern Library. 2001, p-252.
5. Удальцов М.Ю. Проблемы семейного единства и взаимосвязи семьи и государства в философии Аристотеля // Омские социально-гуманитарные чтения – 2011: материалы IV Межрегион. науч.-практ. конф. / Омск. гос. техн. ун-т. – Омск, 2011. – С. 167–170.
6. Russell Neili(2001) Against Divorce; David Hume defends traditional marriage. <http://discourse.com>
7. Равочкин Н. Н. Осмысление феномена семьи в истории социальной философии // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2018. – № 1 (январь). – С. 64–71. – URL: <http://e-koncept.ru/2018/183004.htm>
8. Glukhikh I.A. Philosophical and sociological analysis of the concepts “family” and “substitute family”. PNRPU Sociology and Economics Bulletin, 2023, no. 4, p. 99-111.